

EDITORIAL LEADERSHIP

Editor-in-Chief:

Zukhra Nishonova – DSc (Psychology), Professor

Deputy Editor:

Ranokhon Oripova – PhD (Pedology), Associate Professor
Uzbek National Institute of Musical Arts named after Yunus Rajabi

Editorial Board:

Amina Ruzikulova – PhD (Psychology), Associate Professor
Navoi State Pedagogical Institute

Amina Sultanova – PhD (Psychology), Associate Professor
Uzbekistan National Pedagogical University named after Nizami

Azam Gaybullaev – PhD (Psychology), Associate Professor
Bukhara State Pedagogical Institute

Dilnoza Kodirova – PhD (Psychology)
Bukhara State University

Gulbakhor Yadgarova – PhD (Psychology), Associate Professor
Bukhara State Pedagogical Institute

Khabiba Yusupova – PhD (Pedology), Associate Professor
University of Tashkent for Applied Sciences

Lola Iliyeva – PhD (Psychology), Associate Professor
Tashkent Institute of Chemical Technology

Mirzokhid Yunusov – PhD (Pedology), Senior Lecturer
Fergana State University

Nasibakhon Akhmedova – PhD (Pedology), Associate Professor
Fergana Region Pedagogical Skills Center


Nilufar Akhmedova – PhD (Pedology)
Customs Institute of the State Customs Committee

Ozodakhon Urinova – PhD in (Pedology), Associate Professor
Fergana State University

Rano Ismaylova – PhD (Psychology), Associate Professor
Alfraganus University

Sarvinoz Kosimova – PhD (Psychology), Associate Professor
Bukhara State University


Shuhrat Kudayberganov – PhD (Pedology), Associate Professor
Urgench State Pedagogical Institute



ENHANCING REFLECTIVE ACTIVITY IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH THE IMPLEMENTATION OF QUEST-BASED LEARNING TECHNOLOGIES IN EARLY CHILDHOOD EDUCATION INSTITUTIONS

Feruza Boltayeva¹.

¹ Independent Researcher (PhD Candidate), Namangan State University, Namangan, Uzbekistan.

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.19675608>

Key words: *quest-based learning technology, reflective activity, preschool education, exploratory learning, cognitive development, play-based learning, reflective skills, pedagogical innovation.*

ABSTRACT

The purpose of this study is to determine the effectiveness of quest-based learning technologies in developing reflective activity among preschool children. The research employed observation, interviews, and questionnaire surveys, involving 38 educators and children from different age groups. The findings revealed the presence of socio-emotional adaptation difficulties, low self-confidence, fear of making mistakes, and insufficient development of cognitive processes among children. The limitations of traditional teaching approaches were identified, as the majority of learning outcomes remained at an average level. The results of the experimental work confirmed that activities based on quest technology effectively enhance exploratory learning, independent thinking, and reflective skills in children. It is concluded that quest-based learning represents an innovative pedagogical approach that integrates play and learning, and serves as an effective tool for fostering reflective activity in preschool education.

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA KVESTGA ASOSLANGAN O'QITISH TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA REFLEKSIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH

Kalit so'zlar: *kvest texnologiyasi, refleksiv faoliyat, maktabgacha ta'lim, tadqiqiy bilish, kognitiv rivojlanish, o'yin asosida o'qitish, refleksiv ko'nikmalar, pedagogik innovatsiyalar.*

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqotning maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kvest texnologiyasini qo'llash orqali bolalarda refleksiv faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat va anketa so'rovnomalari metodlaridan foydalanildi hamda 38 nafar pedagog va turli yosh guruhidagi bolalar ishtirok etdi. Olingan natijalar bolalarda ijtimoiy-hissiy moslashuv muammolari, o'ziga ishonchning pastligi, xatolardan qo'rqish va tafakkur faoliyatining yetarli rivojlanmaganligini ko'rsatdi. An'anaviy ta'lim jarayonining samaradorligi cheklanganligi aniqlanib, o'zlashtirish darajasining asosiy qismi o'rtacha ko'rsatkichda qolayotgani qayd etildi. Kvest texnologiyasiga asoslangan faoliyatlar bolalarda tadqiqiy bilish, mustaqil fikrlash va refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali ekanligi tajriba-sinov natijalarida tasdiqlandi. Xulosa sifatida, kvest texnologiyasi maktabgacha ta'limda o'yin va o'rganishni integratsiyalovchi innovatsion yondashuv sifatida refleksiv faoliyatni rivojlantirishda muhim pedagogik vosita ekanligi aniqlandi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarning barkamol shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanib, ularning kelgusidagi muvaffaqiyatlari uchun fundamental asos vazifasini bajaradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan 2026-yil 5-fevralda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-19-son Farmonda bolalarni rivojlantirish innovatsion markazlarida yosh va rivojlanish bosqichlariga mos ravishda ijod va san'at, fan va matematika, jismoniy faollik va sarguzasht, til va tasavvur hamda robototexnika va boshlang'ich algoritmlash yo'nalishlari bo'yicha tematik o'yin maydonlarini tashkil etish belgilab berilgan. Ushbu yondashuv maktabgacha ta'lim tizimining zamonaviy bosqichdagi dolzarbligini yaqqol namoyon etadi.

Mazkur yo‘nalishlar orasida sarguzasht elementlariga asoslangan o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng qiziqarli va yuqori darajada motivatsion faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Bolalar predmetlarning tuzilishi va funksional xususiyatlarini manipulyativ faoliyat orqali anglashga intiladilar. Sarguzasht o‘yinlarida faol ishtirok etish, avvalo, tadqiqiy bilish imkoniyatlarining kengayishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, “sarguzasht” tushunchasi bolaning yangi tajribaviy muhitni mustaqil kashf etish jarayonini ifodalaydi. Bunday o‘yin jarayonida bolalar turli muammoli vaziyatlar va topshiriqlarni hal etish orqali natijaga erishish uchun o‘z xatti-harakatlarini boshqarish, xatolarni takrorlamaslik hamda muqobil strategiyalarni ishlab chiqishga intiladilar.

Xatolar natijasida yuzaga keladigan muvaffaqiyatsizlik holatlari esa bolani o‘z faoliyatini tahlil qilishga undaydi. Mazkur jarayon refleksiv faoliyat sifatida talqin qilinadi va zamonaviy bolalar rivoji uchun ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Refleks organizmning ichki yoki tashqi ta’sirlarga javob reaksiyasi bo‘lib, u refleks yoyi orqali nerv tizimi ishtirokida amalga oshadi. Reflekslar shartsiz (tug‘ma) va shartli turlarga ajratiladi. Shartsiz reflekslarga, masalan, issiq jismdan qo‘lni tortib olish yoki keskin tovushga javoban boshni burish kiradi. Shartli refleks esa Ivan Pavlov tomonidan ilmiy asoslangan bo‘lib, u hayotiy tajriba natijasida shakllanadi va o‘rganiladigan ko‘nikmalar (masalan, velosiped haydash yoki ismga javob berish) bilan bog‘liq [1]. Ushbu nazariya keyinchalik inson xulq-atvori va dunyoqarashini shakllantirish mexanizmlarini tushuntirishda muhim pedagogik va psixologik ahamiyat kasb etdi.

Maria Montessori sensor va harakat faoliyatlarini tizimli mashq qildirish orqali ularni bosqichma-bosqich anglash va takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Uning yondashuviga ko‘ra, bu jarayon tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi [2]. Montessori nazariyasida refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishda hissiy rivojlanish davrining ahamiyati alohida qayd etiladi.

T.G. Minchuk zamonaviy pedagogik sharoitda shaxsni anglash, o‘z fikrini erkin ifodalash, shaxsiy imkoniyatlarni to‘liq ro‘yobga chiqarish orqali “Men” konsepsiyasini shakllantirish zarurligini asoslaydi [3]. Muallifning fikricha, o‘z-o‘zini anglash va o‘z shaxsiga nisbatan hurmat insonning jamiyatga nisbatan konstruktiv munosabatini shakllantiradi.

Howard Gardner tomonidan ilgari surilgan ko‘p qirrali intellekt nazariyasiga ko‘ra, inson aqliy salohiyati sakkiz turga ajratiladi. Ulardan biri – intrapersonal intellekt – shaxsning o‘z hissiyotlarini anglash va ular asosida faoliyat yuritish qobiliyatini ifodalaydi [4]. Ushbu yondashuv refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirishning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Refleksiv faoliyatga asoslangan pedagogika zamonaviy fanlar qatorida shakllanib, N.G. Alekseev, V.V. Davidov, Yu.V. Gromiko, I.N. Semenov va boshqa olimlar tomonidan nazariy hamda empirik jihatdan tadqiq etilgan. Mazkur yo‘nalish umumiy pedagogika, pedagogik psixologiya, refleksiv psixologiya va refleksiv akmeologiya doirasida keng o‘rganilgan.

Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim jarayonida kvest texnologiyalarini qo‘llash masalalari Ya.S. Buxovskiy, B. Dodge, G.Z. Efimova va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, mazkur texnologiyaning refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi o‘rni yetarli darajada ilmiy asoslanmagan.

METODLAR

Kvest texnologiyasi o‘z mohiyatiga ko‘ra sarguzasht elementlariga asoslangan o‘yin faoliyatlari majmuasini anglatadi. Ushbu jarayonda bolalar muayyan topshiriqlarni bajarish va yashirin ma’lumotlarni aniqlash uchun belgilar tizimidan foydalanadilar. Belgilar ortiga yashirilgan “kalit”ni topish jarayonida bola o‘z tafakkur salohiyatini maksimal darajada safarbar etadi.

Mazkur faoliyatning izchil davom etishi bolada o‘z imkoniyatlarini anglash, ularni baholash va rivojlantirishga yo‘naltirilgan refleksiv ko‘nikmalarni shakllantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kvest o‘yinlarini quyidagi mavzular asosida tashkil etish mumkin: “Yashirin xat”, “So‘zlarda yashiringan jumboq”, “Yashirin ishora”, savol-javob o‘yinlari, labirintlar, topishmoqlar, rebuslar, shifrlangan so‘zlar (telefon tugmalari yoki simvollar yordamida), “10 ta farqni toping”, estafeta o‘yinlari, “Qaysi biri ortiqcha?”, sanashga oid topshiriqlar, “To‘g‘ri qutini toping”, “Oynadagi aks” va boshqalar. “Yashirin xat” usuli alohida pedagogik ahamiyatga ega. Ushbu metodda bolalar xatni o‘qish uchun muayyan amaliy harakatlarni bajarishlari talab etiladi. Masalan, mum, sham yoki rangli bo‘yoqlar yordamida yozilgan yashirin matnni aniqlash uchun qog‘oz yuzasini bo‘yash zarur bo‘ladi.

Natijada matn ko‘rinadi. Ushbu usul xavfsiz va samarali topshiriq shakli hisoblanadi, chunki mum suvni singdirmaydi va bo‘yoq faqat qog‘ozga singib, yashirin yozuvni ochib beradi.



1-rasm. “Yashirin xat” tayyorlash usuli.

Yashirin xatlardan kvest o‘yinlarida xarita elementlari yoki topishmoqlar javoblarini aniqlash, shuningdek, keyingi manzillarni belgilash vositasi sifatida foydalanish mumkin. Masalan, “Keyingi topshiriq gullar burchagida” mazmunidagi yozuvni aniqlash orqali bolalar navbatdagi vazifani bajarishga faol jalb etiladilar. Mazkur usul bolalarda hayrat va qiziqish hissini uyg‘otib, ularni o‘yin jarayoniga to‘liq jalb etadi hamda har bir harakatdan yangi ma‘no izlashga yo‘naltirilgan refleksiv ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shu bilan birga, kundalik hayotda qo‘llaniladigan turli predmetlarni tadqiq etishga nisbatan qiziqish ham ortadi.

Bosma (bosilgan) yozuv usuli. Ushbu metodda ikki varaq qog‘oz olinib, yumshoq sirt ustiga joylashtiriladi va pastki varaqqa bosim orqali yashirin matn yoziladi. Natijada “sirli xat” hosil bo‘ladi. Matnni aniqlash uchun yuqori varaq yuzasini qalam bilan yengil soylash talab etiladi, bu esa yashirin yozuvni ko‘rinadigan holatga keltiradi. “So‘zlarga yashiringan jumboq” usuli. Mazkur usulni qo‘llashda rasmlar va so‘zlar kombinatsiyasidan foydalaniladi. Tarbiyachi oldindan bir nechta so‘z yoki so‘z birikmalarini tanlaydi va ularning ichiga boshqa kichik so‘zlarni yashiradi. Ushbu metod asosan katta va tayyorlov guruhlari uchun mos hisoblanadi.

Masalan: “olma” so‘zida “ol”, “kitob” so‘zida “kit”, “gulzor” so‘zida “gul”, “shakar” so‘zida “shar” komponentlari mavjud. Topilishi lozim bo‘lgan so‘zdagi harflar soniga mos ravishda katakchalar qo‘yilishi metodik jihatdan muhimdir.

Mazkur topshiriqni bajarish jarayonida bola tovush-harf tahliliga asoslangan differensiallash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Keyingi bosqichda har bir so‘z uchun yo‘naltiruvchi savollar, tasviriy materiallar yoki qo‘shimcha jumboqlar ishlab chiqiladi. Yakuniy natijada boladan yashirin ishorani aniqlash talab etiladi (masalan, “kit yonida joylashgan gul ichidagi sharni ol” kabi kombinatsiyalangan yechim). Ushbu metod bolalarda nutq rivoji bilan bir qatorda tafakkur tezligi va moslashuvchanligini ham oshiradi. Bola yashirin ishorani aniqlash jarayonida mavjud tajribasiga tayangan holda taxminlar ilgari suradi va muammoni hal etishga intiladi. Bunday tafakkurga yo‘naltirilgan faoliyat refleksiv jarayonning muhim komponenti hisoblanadi.

“Yashirin ishora” usuli. Ushbu turdagi topshiriqlarni tashkil etishda qum, don mahsulotlari yoki makaron bilan to‘ldirilgan idishlardan foydalaniladi va ularga ko‘rsatmalar yashiriladi. Shuningdek, suv idishlaridan foydalanish ham mumkin. Mazkur usul ochiq makonda o‘tkaziladigan sarguzasht o‘yinlari uchun ayniqsa samaralidir. Ko‘rsatmalarni nafaqat idish ichiga, balki muayyan hududlarga (masalan, butalar yoki zich o‘tloqlar orasiga) yashirish ham mumkin.

Viktorina (savol-javob) usuli. Ushbu metod bir yoki bir nechta savollardan iborat bo‘lib, to‘g‘ri javob berilgach, ishtirokchilarga qo‘shimcha ma‘lumot yoki yo‘naltiruvchi ishora taqdim etiladi. Viktorina savollarining yagona mavzu doirasida bo‘lishi metodik jihatdan maqsadga muvofiqdir. Masalan, ertaklardan olingan iboralar asosida ishtirokchilar qaysi ertak haqida gap ketayotganini aniqlashlari mumkin.

Shuningdek, quyidagi variantlar ham samarali hisoblanadi:

– turli buyumlar yoki tasvirlar asosida ularning qaysi film yoki multfilmga tegishli ekanligini aniqlash;

– hayvonlar, qushlar yoki hasharotlarga oid savollar;

– maishiy texnika yoki kundalik hayot buyumlari asosidagi savollar.

Viktorina mazmuni o‘quvchilarning yaqinda o‘zlashtirgan mavzulari bilan bog‘langanda, u nafaqat qiziqarli, balki didaktik jihatdan ham samarali vositaga aylanadi.

Mashq (topshiriq). Ushbu topshiriqlar nasriy yoki she‘riy shaklda bo‘lishi mumkin bo‘lib, ularning javobi keyingi bosqich uchun kalit vazifasini bajaradi.

Rebus. Kalit so‘z rebus shaklida ifodalanadi. Rebuslar tayyor shaklda olinishi yoki mualliflik asosida ishlab chiqilishi mumkin. Jumboq (pazl). Rasm qog‘ozga chop etilib, qalin kartonga yopishtiriladi va bo‘laklarga ajratiladi. Bolaning vazifasi – tasvirni qayta yig‘ish va uning mazmunidan kelib chiqib keyingi topshiriq uchun ishorani aniqlashdir. “10 ta farqni toping” usuli. Ikki rasmni solishtirish orqali farqlarni aniqlashga asoslangan klassik o‘yin. Ushbu farqlardan umumiy yashirin topshiriqni shakllantirish mumkin. Yuqorida keltirilgan metodik yondashuvlar kvest texnologiyasining amaliy mazmunini ochib beruvchi samarali pedagogik vositalar hisoblanadi. Pedagogning kreativ salohiyati yuqori bo‘lgan sari, topshiriqlarni diversifikatsiya qilish va ularni turli yo‘nalishlarda modifikatsiya qilish imkoniyati kengayadi.

NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlari uchun tanlab olingan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida dastlab tarbiyachi-pedagoglarning kvest yo‘nalishidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha bilim darajasi, ularning qo‘llanish ko‘lami, samaradorligi hamda ushbu texnologiyalarga nisbatan munosabatlari kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat va anketa so‘rovnomalari metodlaridan foydalanildi. So‘rov va suhbatlarda tajriba-sinov o‘tkazilishi rejalashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi jami 38 nafar pedagog ishtirok etdi va o‘z fikrlarini anketa shaklida bayon etdi. Kuzatuv ishlari bolalarning yosh guruhlarida kesimida tashkil etildi.

Bolalarga moslashtirilgan savollar og‘zaki shaklda berilib, olingan javoblar miqdoriy ko‘rsatkichlar asosida foizlarda tahlil qilindi.

Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan anketa natijalari bolalarning maktabgacha ta‘lim muassasasidagi faoliyatiga nisbatan ijtimoiy-hissiy munosabatlarini aniqlash imkonini berdi. Olingan ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, bolalarning muhim qismi mashg‘ulotlarga nisbatan past motivatsiyaga ega bo‘lib, buning asosiy sabablari sifatida o‘yin faoliyatiga yuqori ehtiyoj (55%), pedagog savollariga to‘g‘ri javob bera olmaslikdan kelib chiqadigan ishonchsizlik (23%) hamda statik faoliyatga (stolda o‘tirish) nisbatan salbiy munosabat (22%) qayd etildi.

Shuningdek, pedagogik nazorat va tanbeh berilishiga sabab bo‘luvchi xatti-harakatlar orasida o‘yinchoqlarni tengdoshlar bilan bo‘lisha olmaslik (42%), mashg‘ulot jarayonida muloqotga kirishish (26%), ortiqcha jismoniy faollik (18%) va guruhdagi buyumlardan ruxsatsiz foydalanish (14%) ustuvor o‘rin egalladi. Bog‘chaga qatnashishga nisbatan munosabatlar tahlili bolalarning 46 foizi muassasaga ijobiy qarashini bildirgan bo‘lsa-da, 33 foizi tashqi omillar (ota-onaning bandligi) tufayli qatnashayotganini, 21 foizi esa ayrim rejim jarayonlariga (masalan, dam olish/uyqu) nisbatan salbiy munosabatda ekanligini ko‘rsatdi. Ta‘limiy topshiriqlarga nisbatan qiyinchiliklar orasida mashg‘ulot davomida diqqatni jamlay olmaslik (57%), savod o‘rganishdagi murakkabliklar (31%) hamda tasviriy faoliyatdagi qiyinchiliklar (12%) aniqlangan. Fantastik va sarguzashtga oid savollarga berilgan javoblar bolalarda tasavvur, qiziqish va xavotir omillarining turlicha namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Xususan, ertaklar olamiga borish istagi 42% respondentlarda kuzatilgan bo‘lsa, 34% bolalar bunday imkoniyatni real emas deb hisoblagan. O‘rmon, kosmos kabi mavzular bilan bog‘liq savollarda esa qiziqish bilan bir qatorda xavfsizlikka oid xavotir elementlari ham kuzatildi.

Shuningdek, bolalarning raqamli o‘yinlarga bo‘lgan qiziqishlari ham o‘rganildi. Natijalarga ko‘ra, harakatga asoslangan sarguzasht o‘yinlari (34%), multfilm qahramonlari ishtirokidagi o‘yinlar (33%), qo‘rqinchli o‘yinlar (21%) hamda konstruktiv (yaratuvchanlikka yo‘naltirilgan) o‘yinlar (12%) ustuvor yo‘nalish sifatida qayd etildi.

Mazkur anketa natijalari bolalarda quyidagi muammolar mavjudligini aniqladi:

- tengdoshlar bilan ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar (56%);
- o‘ziga nisbatan ishonchning yetarli darajada shakllanmaganligi (47%);
- pedagogik tanqid va tanbehga nisbatan yuqori sezuvchanlik (55%);
- xatolardan qo‘rqish (34%);
- tafakkur doirasining yetarli rivojlanmaganligi (63%).

Anketa natijalari tadqiqotning boshlang‘ich va yakuniy bosqichlari kesimida umumlashtirilib, kvest texnologiyasi asosida bolalarda tadqiqiy bilish va reflektiv faoliyatning rivojlanish darajasi baholandi.

Ikkinchi bosqichda tarbiyalanuvchilarning ta‘limiy jarayon va rivojlanish markazlaridagi faoliyati kuzatildi. Baholash mezonlari quyidagicha belgilandi: 0–54 ball – qoniqarsiz, 55–70 ball – o‘rta, 71–85 ball – yaxshi, 86–100 ball – a‘lo.

Natijalarga ko‘ra:

- 10% tarbiyalanuvchilar o‘rgatilgan bilimlarni yetarli darajada o‘zlashtirmagan;
- 36% tarbiyalanuvchilar bilim va ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan;
- umumiy hisobda 54% tarbiyalanuvchilar o‘zlashtirishning o‘rtacha darajasida qolgan.

Tajriba boshida aniqlangan ko‘rsatkichlarga ko‘ra, tajriba guruhi o‘zlashtirish darajasi 45% ni, nazorat guruhi esa 47% ni tashkil etgan.

Mazkur holat shuni ko‘rsatadiki, o‘zlashtirish jarayonida hali ham biologik (irsiy) omillar ta‘siri sezilarli darajada saqlanib qolmoqda. Yuqori genetik moyillikka ega bolalar ta‘lim jarayonida yetakchi pozitsiyani egallamoqda. Shu bois, past va o‘rtacha o‘zlashtirish darajasiga ega bolalarni ta‘limga jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Ta‘lim jarayonini “murakkab” emas, balki “sarguzashtli” faoliyat sifatida tashkil etish ushbu muammoning samarali yechimlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, maktabgacha ta‘lim tizimida bolalarda tadqiqiy bilish va reflektiv faoliyatni shakllantirishga qaratilgan mavjud metodik yondashuvlar zamonaviy talablar darajasida emasligi aniqlandi. Tajriba-sinov ishlarining amaliy bosqichida tarbiyalanuvchilar tomonidan kvest texnologiyasiga asoslangan, mavzulashtirilgan topshiriqlar tizimi asosida tashkil etilgan faoliyatlar bajarildi. Mazkur bosqich natijalariga ko‘ra:

- 5% tarbiyalanuvchilar davlat talablarida belgilangan tadqiqiy-bilish va reflektiv faoliyat ko‘rsatkichlarini o‘zlashtirmagan;
- 33% tarbiyalanuvchilar ushbu ko‘rsatkichlarni o‘rta darajada (55–70 ball) o‘zlashtirgan.

Kvest texnologiyasi qidiruv va izlanishga asoslangan faoliyat turi bo‘lib, uning jarayonida bolalar mustaqil tadqiqiy faoliyatni amalga oshiradilar. Har bir bunday faoliyat natijasida bolalarda individual xulosa chiqarish va kichik tajribalar shakllanadi. Bu esa ularning atrof-muhitni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda tabiatga nisbatan ongli va ehtiyotkor munosabatni rivojlantiradi.

Bolalar turli predmetlarni o‘rganish orqali yangi g‘oyalar va loyihalarni yaratishga intiladilar. Shu nuqtai nazardan, bolalarning tabiiy muhitga qiziqishi va fanlarni o‘rganishga nisbatan faolligi ularning reflektiv faoliyati rivojlanganligining muhim indikatorini hisoblanadi [6, B.50].

Maktabgacha yoshdagi (6–7 yosh) bolalarda kognitiv rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida quyidagilar belgilandi:

- atrof-muhitni kuzatish asosida o‘zining “kichik tajribalar”ini amaliyotda qo‘llay olish;
- kattalar mehnatiga qiziqish bildirish va uni rolli o‘yinlarda aks ettirish;
- xatolarni anglash va ularni takrorlamaslikka intilish;
- materiallarning xususiyatlarini tushunib, ulardan yangi maqsadlarda foydalanish orqali ijodiy loyihalar yaratish.

O‘rganilgan ilmiy adabiyotlar va o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy “alfa avlod” vakillarining kognitiv rivoji amaliy faoliyatga asoslangan yondashuvlarni talab etadi. Amaliy o‘rganish nafaqat bolalar e‘tiborini jalb etadi, balki o‘zlashtirilayotgan bilimlarning chuqur va barqaror egallanishini ham ta‘minlaydi. Shu nuqtai nazardan, kvest texnologiyasi amaliy o‘rganish va tadqiqiy faoliyatni integratsiyalovchi samarali pedagogik vosita sifatida maktabgacha ta‘lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kvest texnologiyasini qo'llash orqali bolalarda refleksiv faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy o'qitish jarayonida bolalarning faol ishtiroki, mustaqil fikrlashi va o'z xatti-harakatlarini tahlil qilish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmayapti. Ayniqsa, mashg'ulotlarning statik xarakterga ega bo'lishi, bolalarning o'yin faoliyatiga yuqori ehtiyoji bilan mos kelmasligi natijasida ularning ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishi pasaymoqda. Bu esa o'z navbatida, refleksiv faoliyatning sust rivojlanishiga olib kelmoqda.

Anketa va kuzatuv natijalari bolalarda ijtimoiy-hissiy moslashuv muammolari, o'ziga ishonchning yetarli darajada shakllanmaganligi, xatolardan qo'rqish hamda tafakkur faoliyatining yetarli rivojlanmaganligi kabi omillar mavjudligini aniqladi. Shu bilan birga, o'zlashtirish ko'rsatkichlarining sezilarli qismi o'rtacha darajada qolayotganligi ta'lim jarayonida mavjud metodik yondashuvlarning samaradorligi cheklanganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, past o'zlashtirish darajasiga ega bolalarni ta'lim jarayoniga jalb etishda innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj mavjudligi yaqqol namoyon bo'ldi. Kvest texnologiyasiga asoslangan faoliyatlar esa bolalarda izlanish, mustaqil qaror qabul qilish, muammoni hal etish va o'z faoliyatini tahlil qilish kabi refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali vosita ekanligi bilan ajralib turadi. Ushbu texnologiya o'yin va ta'limni integratsiyalagan holda bolalarning tabiiy ehtiyojlariga mos keladi hamda ta'lim jarayonini "sarguzashtli" va motivatsion shaklga keltiradi. Natijada bolalar faol o'rganish subyektiga aylanib, o'z tajribasini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tajriba-sinov ishlari natijalari kvest texnologiyasini qo'llash orqali bolalarning tadqiqiy bilish faoliyati va refleksiv ko'nikmalarida ijobiy o'zgarishlar yuz berayotganligini tasdiqladi. Bu esa mazkur texnologiyaning maktabgacha ta'lim tizimida qo'llanilishi ilmiy va amaliy jihatdan asosli ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini tashkil etishda kvest texnologiyasiga asoslangan faoliyatlarni tizimli ravishda joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunda mashg'ulotlarni bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mos ravishda sarguzasht elementlari bilan boyitish, o'yin orqali o'rganish tamoyillarini keng qo'llash zarur. Shuningdek, tarbiyachi-pedagoglarning mazkur texnologiyadan foydalanish bo'yicha metodik tayyorgarligini oshirish, ularning kreativ yondashuvlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida refleksiv faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlarni muntazam qo'llash orqali bolalarda o'z xatti-harakatlarini baholash, xatolar ustida ishlash va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish lozim. Shu bilan birga, past o'zlashtirish darajasiga ega bolalarni faol jalb etish uchun ta'lim jarayonini qiziqarli va motivatsion shaklga keltirish, uni "qiyin" emas, balki "sarguzashtli" faoliyat sifatida tashkil etish zarur. Mazkur yondashuvlar orqali maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning tadqiqiy bilish faoliyati va refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ivan Pavlov. Biografiya. *TechInsider*. Mavjud: <https://www.techinsider.ru/persons/biography/ivan-pavlov/> (murojaat qilingan sana: 2026-yil 12-mart).
2. Nishanova Z.T., Kamilova N.G., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. *Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya*. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. – 70 b.
3. Tamara Grigoryevna Minchuk. Printsipy sozdaniya sistemy uchebnogo oborudovaniya dlya obucheniya uchashchikhsya 1–3 klassov (na materiale resheniya matematicheskikh zadach): dissertatsiya ... kandidata pedagogicheskikh nauk: 13.00.01. Moskva, 1974. – 150 s.
4. Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.B., Mikailova U.T., Isaxodjayeva N.A., Nekrasova E.A., Kuryayeva I.B. *Maktabgacha ta’limda ta’lim jarayonini individuallashtirish. Alohida ehtiyojli bolalar inklyuziyasi* (metodik qo‘llanma). Toshkent, 2020.
5. Antonina Nikolaevna Zhdan. Teoriya razvivayushchego obucheniya V. V. Davidova v kontekste kulturno-deyatelnostnogo podkhoda. *Razvitie lichnosti*, 2015, №3. Mavjud: <https://cyberleninka.ru/article/n/teoriya-razvivayushchego-obucheniya-v-v-davydova-v-kontekste-kulturno-deyatelnostnogo-podhoda> (murojaat qilingan sana: 2026-yil 12-mart).
6. O‘zbekiston Respublikasi. “*Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan davlat talablari*”. Toshkent, 2018-yil 18-iyun, 1-mh-son.

ILMIY TAQRIZ

Taqdim etilgan maqola maktabgacha ta'lim tizimida kvest texnologiyasini qo'llash orqali bolalarda reflektiv faoliyatni rivojlantirish muammosini kompleks va tizimli yondashuv asosida tahlil qilgani bilan ajralib turadi. Mazkur yo'nalish zamonaviy pedagogika va rivojlanish psixologiyasi doirasida ustuvor ilmiy masalalardan biri bo'lib, ayniqsa, maktabgacha yosh davrida shaxsning kognitiv, ijtimoiy va emotsional kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida refleksiyaning o'zni tobora ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, maqolada ilgari surilgan ilmiy g'oyalar nafaqat amaliy pedagogik ehtiyojlarga javob beradi, balki nazariy jihatdan ham muhim umumlashmalarni o'z ichiga oladi. Muallif tomonidan kvest texnologiyasining mohiyati kengroq talqin qilinib, u oddiy o'yin yoki didaktik usul sifatida emas, balki reflektiv faoliyatni faollashtiruvchi, bolalarning metakognitiv jarayonlarini rivojlantiruvchi integrativ pedagogik mexanizm sifatida asoslab berilgan. Bu esa tadqiqotning ilmiy yangiligi va konseptual ahamiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Maqolada reflektiv faoliyatning tarkibiy komponentlari – o'z-o'zini anglash, faoliyatni rejalashtirish, monitoring qilish va natijalarni baholash kabi jarayonlar kvest topshiriqlari bilan uyg'un holda yoritilgan bo'lib, bu yondashuv nazariya va amaliyot integratsiyasining muvaffaqiyatli namunasi sifatida baholanishi mumkin. Ayniqsa, mavjud ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada o'rganilmagan kvest texnologiyasi va reflektiv rivojlanish o'rtasidagi funksional bog'liqlikning ochib berilishi maqolaning ilmiy qiymatini oshiradi hamda uni mazkur yo'nalishda keyingi tadqiqotlar uchun muhim metodologik asosga aylantiradi.

Maqolaning amaliy va metodologik ahamiyati ham yetarlicha yuqori darajada bo'lib, unda ta'lim jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan aniq metodik yondashuvlar, pedagogik strategiyalar va texnologik yechimlar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda kuzatish, suhbat va anketa kabi empirik metodlarning qo'llanilishi olingan natijalarning ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi, 38 nafar pedagog hamda turli yosh guruhidagi bolalarning jalb etilishi esa ma'lumotlarning ma'lum darajada reprezentativligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotning metodologik bazasini yanada mustahkamlash nuqtai nazaridan ayrim jihatlar takomillashtirishni talab qiladi: xususan, eksperimental va nazorat guruhlari shakllantirish mezonlarini aniqroq belgilash, ularning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini chuqurroq tahlil qilish, shuningdek, statistik tahlil usullarini kengroq qo'llash natijalar ishonchliligini sezilarli darajada oshirgan bo'lur edi.

Bundan tashqari, xalqaro ilmiy manbalar bilan qiyosiy tahlil olib borish, xorijiy tajribalarni jalb etish va nazariy asoslarni global ilmiy diskurs bilan uyg'unlashtirish maqolaning akademik darajasini yanada yuksaltiradi. Shunga qaramay, tadqiqotning kuchli jihatlari – mavzuning dolzarbligi, nazariy va amaliy yondashuvlarning uyg'unligi, kvest texnologiyasining pedagogik imkoniyatlarini chuqur ochib berilganligi hamda empirik ma'lumotlarga asoslanganligi – uning ilmiy va amaliy qiymatini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, maqola maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, bolalarda reflektiv va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish jarayoniga sezilarli hissa qo'shishi mumkin. Shu bois, ayrim metodologik kamchiliklarni bartaraf etish sharti bilan mazkur maqolani ilmiy jurnalda chop etish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Disclaimer ©

This editorial review has been prepared by the Editorial Board of the *Journal of Pedagogical & Psychological Studies* for the purposes of internal editorial assessment and quality assurance within the journal's publication process. This review is intended to provide an analytical overview of the scientific content, methodological approach, and thematic relevance of the submitted work. It does not constitute peer review, does not replace independent expert evaluation, and should not be interpreted as reflecting the personal views of the author(s) or as representing the official position of the journal. The Editorial Board assumes no responsibility for the implementation, interpretation, or consequences of any observations, comments, or analytical conclusions contained in this review. The review may include content generated with the assistance of artificial intelligence tools used for editorial support purposes.

This editorial review is provided solely to enhance transparency in the editorial process and to support the maintenance of academic and publication standards.